

**SARIMSOQ PIYOZ – YETISHIRISHDA BIOSTIMULYATORLARDAN FOYDALANISH**

*Dilshodbek Sherimov Shavkat o'g'li*

*Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti  
"Sabzavotchilik" ta'lim yo'nalishi tayanch doktoranti.*

*E-mail: dilshodbeksherimov77@gmail.com*

*Tel: +99899 347 87 77*

**Annotatsiya:** Hozirgi paytda o'simliklardan yuqori va sifatli hosil olishda o'g'itlarning ahamiyati benihoya samaralidir. Albatta o'g'itlar qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olish bilan birga ularning tez pishib yetilishida ham roli beqiyos. Ayni vaqtda sarimsoq piyoz yetishtirishni tashkil qilishda shu paytgacha turli xil anorganik va organik o'g'itlardan foydalanilib kelinmoqda. Biostimulyatorlar bo'lsa zamonaviy dehqonchilikda yangi foydalanilib kelinayotgan o'g'itlar turiga kiritiladi. Tadqiqotlarda biostimulyatorlarni Qoraqolpog'iston tuproq iqlim sharoitida qo'llash yuzasidan amaliy ish olib borildi.

**Kalit so'zlar:** o'g'it, anorganik, organik, sarimsoq piyoz, preparat, sho'rlanish, Bioenergy preparati, innovatsiya.

Bugungi kunda agrar sohani isloh qilish, qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlarini, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida jami 63 ta hujjatlar, shundan 6 ta O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 ta farmoni, 26 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 42 ta qarori qabul qilinib islohotlarning huquqiy asoslarini qonunan yanada isloh qilishga yordam beradi .

Ta'kidlash joizki, 2023-yilda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid bir qancha normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumadan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi huzuridagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Prezidentimizning yuqoridagi farmoni bilan "2021-2025 yillarda qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini ustuvor rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi.

Undan tashqari sarimsoq piyoz yetishtirish bo'yicha mamlakatimiz tomonidan qonun, qaror va qonun osti hujjatlari qabul qilingan. Ya'ni rentabelligi past yerlardan samarali foydalanish borasida jumladan dehqon, fermer, va tomorqa yer xo'jaliklarida sarimsoq piyoz yetishtirish maydonini keskin ko'paytirishni belgilab qo'yilgan.

Hozirgi kunda respublikamiz sharoitida sarimsoq piyozga bo'lgan talab ortib bormoqda shuning uchun biz sarimsoq piyoz o'simligidan yuqori va sifatli hosil olishning yangi agrotexnik tadbirlarini ishlab chiqishimiz zarur albatta. Ayni vaqtda

ekinni yetishtirishda ularni o'g'itlashda asosan organik hamda anorganik o'g'itlardan foydalanilmoqda, afsuski ba'zi paytlarda bu o'g'itlardan foydalanilganida ko'zlangan natijani olish biroz qiyinroq. Lekin Qaraqolopog'iston tuproq iqlim sharoitida yuqori hosil olish imkoniyati kam, shu sababdan sarimsoq piyozni o'g'itlashning yangi usullarini ishlab chiqish lozim albatta bu bilan sarimsoq piyoz yetishtirishda ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Bunda biostimulyatorlarning roli nihoyatda katta.

Ma'lumot b'yicha o'simliklarni mineral moddalar bilan barg orqali ozuqalantirish mumkinligi haqidagi dastlabki tajribalar laboratoriyasida o'tkazilgan. O'simliklarning bargiga singan ozuqa moddalar uning bo'limlariga tarqaladi, va undan o'simlikning barcha o'rganlari to'liq foydalanadi. Demak bu fikrga qo'shiladigan bo'lsak, bargdan oziqlantirishning o'rni ahamiyatga ega ekanligini tushunamiz.

Barg va poya yuzasiga tushgan suspenziya o'simlik urug'lariga yutilib, o'sishini va rivojlanishini yaxshilashi mumkin, sababi, barglar qalinlashib undagi xlorofillar miqdori ko'payadi, fotosintez jarayonining faollashishi sababli, so'ruvchi hasharotlarga chidamliligi ortadi. Shuningdek hosildorlik oshadi va hosilning piship yetilishi tezlashadi.

Barg orqali oziqlantirilgan maydonlardagiga solishtirganda 3-5 kunga tezlashishi haqida ko'plab olimlar o'zlarining ilmiy mehnatlari natijasida olingan ma'lumotlarga asoslanib isbotlangan.

Har qanday qishloq xo'jalik ekinlari singari sarimsoqni bargidan oziqlantirishning bir qator afzalliklari bunda poya yiriklashib boshlaydi. Ozuqa moddalar tomonidan tez o'zlashtiradi, o'g'it tejaladi uning samaradorligi ortib boradi. Olib borilgan tajribalar davomida sarimsoq piyozni bargidan oziqlantirish mahsus sharoitda eritmalar sepib o'tkaziladi. Ildizdan tashqari bargdan oziqlantirish sug'orishga qaraganda teroq ta'sir qilib, vegetatsiya davrining qisqarishi va olinadigan hosilning ortishiga olib keladi.

Ozuqa moddalarning barg orqali o'zlashtirishga qaraganda tez o'tib natijasi tez kuzatiladi. Ayniqsa azot yoki boshqa moddalar yetishmay turganda bargdan oziqlantirish yaxshi natija beradi. Ildizdan tashqari oziqlantirish sug'orishga solishtirganda sarf ozroq bo'ladi. Barcha mikroelementlarni sarimsoq bargi orqali so'rib oladi, ya'ni tuproqqa yuvilib ketmasligiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Sh.M.Mirziyoyev "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi PF. 2020-yil. 31-yanvar. Yangi O'zbekiston gazetasi.
2. Azimov B.J., azimov B.B., "Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi" Toshkent. 2002-y, 117-b.
3. Abbosov A, Xakimov.P. "Piyoz va sarimsoq piyoz yetishtirishni bilasizmi? O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010-y., 10-soni, 6-b.